

Date: 23rd December-2024

SHAXSNI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING NAZARIY VA
AMALIY ASOSLARI

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi

International school of finance technology and science instituti

katta o‘qituvchisi

Bekmirzayeva J.B.

Xorijiy til va o‘qitish yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning shakllanish jarayoni psixologiya nuqtai nazaridan chuqur yoritilgan. Unda shaxsga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida shaxslararo munosabatlar, jamiyatdagi siyosiy muhit va mafkuraviy qarashlarning o'rnini alohida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: sotsial psixologiya, ijtimoiy-psixologik yondashuv, sotsializatsiya, shaxslararo munosabatlar.

Shaxsning shakllanishi – psixologiyaning turli sohalarida o‘rganiladigan muhim mavzulardan biridir. Ijtimoiy psixologiya bu jarayonni shaxsning turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro munosabatlari orqali o‘rganadi. Ma’lumki, har bir inson jamiyatda turli ijtimoiy ta’sirlarni qabul qilishi va ularni o‘z xulq-atvori hamda munosabatlarida namoyon etishi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, shaxs sotsializatsiyasi jarayoni ijtimoiy psixologiyaning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud. Psixologik ijtimoiy psixologiya – shaxsning faoliyati, shaxslararo munosabatlari va kognitiv xususiyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv shaxsning individual psixologik jarayonlari, hissiyotlari va ongi qanday qilib ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashishini o‘rganishga qaratilgan. Jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va ommaviy hodisalar tahliliga urg‘u beradi. Bu yondashuv ijtimoiy institutlarning shaxsga qanday ta’sir qilishini, jamiyatdagi ijtimoiy normativlar va hodisalarning shaxs xulq-atvoriga ta’sirini aniqlaydi. Har ikkala yondashuv bir-birini to‘ldiradi va shaxsning turli ijtimoiy muhitlarda o‘zini qanday tutishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologiya shaxsni o‘rganishda turli nazariy yondashuvlarga tayangan holda insonning ichki va tashqi xususiyatlarini tahlil qiladi. Shaxsiyat tushunchasi psixologiyada bir necha asosiy nazariy yo‘nalishlar orqali talqin qilinadi:

- **Psixanalitik yondashuv:** Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariya shaxsiyatni id, ego va super-ego tuzilmalariga bo‘ladi. Freydning izdoshlari Karl Gustav Yung, Alfred Adler va boshqalar individual psixologiya va analitik psixologiya orqali shaxsiyatni chuqurroq o‘rganishni davom ettirgan.

- **Gumanistik psixologiya:** Maslou va Karl Rojersning yondashuvi shaxsning o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilishiga va insonning ichki salohiyatini rivojlantirishga



Date: 23rd December-2024

asoslanadi. Bu yo‘nalishda shaxsning individual tajribasi va qadr-qimmatini e‘tiborga olish muhim.

- **Kognitiv psixologiya:** Ushbu yo‘nalish shaxsning fikrlash jarayonlari, qaror qabul qilish, e‘tibor va xotira kabi intellektual xususiyatlariga qaratilgan. A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya shaxsni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

- **Ijtimoiy psixologiya:** Shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari va jamoaviy ta’sirlar shaxsiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi asosiy omil sifatida o‘rganiladi. Bu yo‘nalishda Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi dolzarbdir.

Bola ijtimoiy normalar va qadriyatlarni birinchi navbatda oilada o‘rganadi. Oiladagi ijobiy muhit shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Maktab ta’limi bola ongida ijtimoiy tartib-qoidalarining shakllanishiga yordam beradi. Maktab ijtimoiylashuvning asosiy institutlaridan biri sifatida bolani jamiyatning faol a’zosi sifatida tarbiyalaydi.

Shaxsning shakllanishi uch sohada amalga oshadi.

- ✓ Faoliyat sohasi shaxs turli faoliyatlarga jalb etilishi jarayonida o‘ziga xos bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Faoliyat jarayonida shaxsning o‘zini namoyon qilishi va yangi qobiliyatlar egallashi kuzatiladi.

- ✓ Muloqot sohasi shaxslararo munosabatlar shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Muloqot orqali inson o‘zining jamiyatdagi o‘rnini aniqlaydi va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarini yo‘lga qo‘yadi.

- ✓ O‘z-o‘zini anglash sohasi bu shaxs o‘zini boshqalar bilan solishtirish, baholash va nazorat qilish orqali o‘zining psixologik imkoniyatlarini angalaydi. Bu jarayonda shaxsning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi shakllanadi.

Shaxs va ijtimoiy ta’sirlarida shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqalari uning psixologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir shaxsning xulq-atvori uning a’zo bo‘lgan ijtimoiy guruhlaridagi munosabatlar orqali shakllanadi. Masalan, Zolushka ertagida tasvirlangan voqealar shaxs va uning ijtimoiy muhiti o‘rtasidagi bog‘liqlikning yorqin namunasi bo‘la oladi. Zolushka balda o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatlar ta’sirida o‘zini go‘zal va ishonchli his qilgan bo‘lsa, o‘gay onaning uyida salbiy munosabatlar sabab tortinchoq va kamgap bo‘lib qoladi. Bu esa fransuz faylasufi Jan Pol Sartarning “shaxsni uning vaziyatlaridan ajratib bo‘lmaydi” degan fikri bilan hamohang.

Xulosa haqida shuni aytishimiz mumkinki, Shaxsni o‘rganish zamonaviy psixologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda insonning ichki dunyosini, xulq-atvorini va rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilishga imkon beradi. Psixoanalitik, gumanistik, kognitiv va ijtimoiy psixologiya kabi nazariy yondashuvlar shaxsni chuqurroq anglash va rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy usullar, jumladan, diagnostika, kuzatish, suhbat va psixoterapiya, shaxsning individual xususiyatlarini aniqlash va takomillashtirishda keng qo‘llaniladi. Neyropsixologik tadqiqotlar va raqamli diagnostika, shaxsni o‘rganish jarayonini yanada samarali va aniqlik bilan tashkil etishga yordam beradi. Ushbu jarayon ta’lim,



Date: 23rd December-2024

psixoterapiya, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахманов, Р. А. Психология личности: Теория и практика. Ташкент: Узбекистан Миллий Энциклопедияси нашриёти. (2010).
2. Карпов, А. В. Психология личности: Современные теоретические подходы. Москва: Академический проект. . (2017).
3. Ҳасанбоев, Ж. Таълимда шахс психологиясининг аҳамияти. Тошкент: Фан ва технологиялар. 2019
4. OLIMJONOVA, Z. (2024). OILADAGI SEVGI-ER-XOTIN MUNOSABATLARINING ASOSI SIFATIDA. UzMU xabarлари, 1(1.2. 1), 165-168.
5. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLIHGGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. Journal of new century innovations, 27(2), 46-49.
6. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 235-238.
7. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
8. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 70-74.
9. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҚОЛАТИ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 663-670.
10. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TA'SIRINI EMPIRIK O'RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 4(5), 73-82.
11. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. SO'NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(9), 22-27.

